



AHMAD YASSAVIY HIKMATLARIDA TASAVVUFIIY TUSHUNCHALAR
TALQINI

Nigina Umurova Raximovna

Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi niginaraximovna1995@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ahmad Yassaviy ijodida tasavvufiy tushunchalar va ularning badiiy vazifasi, "Hikmatlar"da mukammal axloq, komil inson xususiyatlari, ideal qahramon haqidagi baytlar tahlil qilindi. Tasavvufiy istilohlarning Hikmatlarda badiiy ifodasi tahlil qilindi. Ahmad Yassaviy ijodi tahlili davomida "Hikmatlar"ning manbalari, asosan, Qur'oni Karim va Hadislar ekanligi misollar orqali asoslab berildi.

Kalit so'zlar: hikmat, tasavvuf, shariat, tariqat, qur'on, hadis, solik, so'fiy, so'fiylik.

Tasavvuf adabiyotida o'ziga xos o'ringa ega so'fiy ijodkorlardan biri bo'lmish Ahmad Yassaviy hikmatlari o'zining serqirra jihatlari bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Xoja Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmat" asari turkiy xalqlarning tariqatga oid ilk mukammal kitobi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Tasavvuf adabiyoti, unga xos tushunchalar va arabiy istilohlar o'zining murakkabligi bilan xalqona uslub va xalqona tildan yiroq edi. Aynan, Ahmad Yassaviy turkiy tilda, xalqchil so'fiyona adabiyotni boshlab berdi. Tasavvufshunos olim N.Komilov ta'kidlaganlaridek: "Ul zoti sharif islomiy haqiqatlar va tasavvuf ahkomini ajabtovur mahorat bilan omixta etib, shariat-u tariqatni bir butun deb, bilib imon va sadoqat g'oyalarini qizg'in ehtiros ila kuylagan va afsonaviy Arslonbob timsolida mujassam bo'lmish turkiy avliyolar piri Xoja Yusuf Hamadoniydan qabul qilgan Xuroson so'fiyona ta'limotiga qo'shib, o'z xalqini yuksak ma'rifat va ilm-u irfonga hidoyat etdi." [7;333]

Tasavvuf olamida shuhrat qozongan, o'zidan so'ng ham xalifalar qoldirgan buyuk so'fiylar ko'p bo'lgan, ammo asrlar davomida turkiylarning so'fiyona hayotiga rahnamolik qilgan va shu kungacha adabiyot, tarix, tasavvuf hamda madaniyat jabhalarida o'z ta'sirini o'tkazgan buyuk siymolar ozdir. Ahmad Yassaviy nafaqat yangi taqriqat yaratuvchisi, balki turkiy tasavvuf she'riyatining birinchi ijodkori sifatida betakror vazifa bajargan edi. Shu o'rinda tasavvufshunos Ibrohim Haqqulning Yassaviy xususida aytgan e'tiroflari fikrmizga yaqqol dalildir: "Ahmad Yassaviy o'z ona tilini birinchi bo'lib tariqat tili maqomiga ko'tardi. Shuning uchun uning she'rlaridagi har bir so'z va har bir ibora Islom haqiqatlari qadar muqaddas, nurli va ilohiydir." [16;19] Dunyoga mashhur Yassaviyning hikmatlaridan iborat "Devoni hikmat" kitobi tasavvuf olamida beqiyos ahamiyatga ega. Biroq ta'kidlash joizki, Ahmad Yassaviy faqatgina hikmat bitish bilangina cheklanmagan, uning ma'naviy bisotida munojot, qasida, munozara janriga oid she'rlar, me'rojnoma ham mavjud.

Ta'kidlaganimizdek, Ahmad Yassaviy hikmatlarini turkiyda bitib, ushbu tilni nihoyatda yuqori maqomga olib chiqdi. Hatto, yuqorida aytganimizdek, tariqat tili darajasiga ko'tardi. So'fiy shoir o'zi mazkur misralarda quyidagicha e'tirof etadi:

Xushlamaydur olimlar bizni aytg'on turkini,
Oriflardan eshitsang, ochar ko'ngil mulkini,
Oyat, hadis ma'nosi turki bo'lsa muvofiq,



Ma'nosiga yetganlar yerga qo'yar bo'rkini. [2;15]

Ahmad Yassaviy boshlab bergan yo'l ya'ni, turkiy tilda Islomiy-tasavvufiy, axloqiy-ma'rifiy tushuncha va g'oyalarni ifodalash ilm ahli uchun yangi bir hodisa edi. Chunki unga qadar bunday mafkura arab-fors tilida bitilar edi. Shu sababdan dastlab so'fiyona g'oyalar bilan yo'g'rilgan hikmatlar jamiyatdagi ayrim "olimlar" tomonidan tanqidga uchragan bo'lishi mumkin. Bu hodisaning yana bir sababi sifatida turk tasavvufshunosi F.Ko'prulizoda quyidagi farazni bayon etadi:"...Yassaviy arab va fors tillaridagi tasavvufiy asarlarni o'qiy olmaydigan turklarga ma'rifat tarqatish va muridlariga tasavvufiy haqiqatlarni talqin etish maqsadida she'r yozgan." [16;29-bet.]

Alisher Navoiy ulug' turk piri xususida shunday so'zlarni aytadi:"Ahmad Yassaviy Turkiston mulkining shayxul mashoyixidir, maqomati oliy va mashhur, karomati matavoliy va nomahsur erdi. Murid va as'hob g'oyatsiz va shoh-u gado aning irodat va ixlosi ostonasida nihoyatsiz erish". Darhaqiqat, Yassaviy nafaqat turkiy xalqlar orasida, balki butun dunyoda mashhurlikka erishgan. Uning hikmatlarida ilgari surilgan g'oyalar, tasavvufiy ma'nolar, tariqatdagi maqomotlar haqidagi nazariy qarashlari dunyo olimlari va kitobxonlarini befarq qoldirmagan. Ahmad Yassaviy so'fiy, tasavvuf g'oyalarini, ezgulikni targ'ib qilgan valiyullohdir. Uning aynan avliyo ekanligini isbotlovchi rivoyatlar bilan birga, o'z hikmatlarida e'tirof etgan bir qancha misralar ham bor. Ijodkorning bizgacha yetib kelgan ma'lumotlarda va tarjimayi holida uning Arslonbob nomli shayxdan ta'lim olgani aytiladi. Shu bilan birga Arslonbob Muhammad alayhissalomdan qolgan omonat – xurmoni yetkazgani xususida ham ma'lumotlar ko'pgina tarixiy adabiyotlarda o'z aksini topgan. Bu haqida Yassaviyning o'zi quyidagi hikmatlarda ta'kidlab o'tadi:

Yetmish yoshda Arslon bobom berdim salom,
Haq Mustafo omonatin qildi in'om.
O'shal vaqtda ming bir zikrin qildim tamom,
Nafsim o'lub lomakonga oshdum mano.
Xurmo berib, boshim silab nazar qildi,
Bir fursatda uqbo sori safar qildi.
Alvido deb bu dunyodin guzar qildi,
Maktab borib, qaynab, to'lib toshdim mano. [2;26]

Ushbu baytlardan ham Ahmad Yassaviyning yoshlikdan avliyolikka dahldorligini anglash mumkin. So'ngroq, tasavvuf olamida mashhur bo'lgan Yusuf Hamadoniyydek buyuk shayx qo'lida so'fiylik maqomatini egallaydi. Ustozlardan olgan tahsillar, so'fiylik jazbasi va ilohiy ishq ishtiyoqi ila Yassaviyona tafakkur hikmatlarda aks ettirildi.

Ahmad Yassaviy hikmatlarida tarixiy hodisalar, ijtimoiy hayot, davr zulm-u jabrlariga norozilik motivlari bilan birga, tasavvufiy g'oyalar, zuhd va taqvo, zikr va shavq kabi tushunchalar ham kuylanadi. Buyuk so'fiy har bir misrada bir ezgu g'oyani ilgari surar ekan, insoniyatni hamisha yaxshilikka da'vat etadi. Sirtidan qaraganda, Yassaviy hikmatlarida nafs bilan kurashishda zohidlik – dunyo lazzatlaridan butunlay voz kechishga da'vat qilingandek tuyuladi, ammo unday emas. Yassaviy dunyo inson uchun yaralgan, undan butkul kechish noo'rin ekanligini quyidagi hikmatda ta'kidlaydi:

Sizni, bizni Haq yaratdi toat uchun
Ey bulajab, ichmak, yemak rohat uchun.



Ushbu misralardan anglashiladiki, inson Haqqa yetishmoq uchun, tariqat maqomotlarini egallash uchun dunyodan, uning lazzatlaridan butunlay voz kechishi to'g'ri emas, balki toatda bo'lib, Alloh halol qilgan yaratilqlar va noz-ne'matlardan bahramand bo'lish kerak. Halol yeb-ichmoq ham asli toat, degan fikrlarni yuqoridagi misralardan anglash mumkin. Ahmad Yassaviy hikmatlari turkona, xalqchil bo'libgina qolmay, auditoriya tomonidan cheklanmagan, boisi undagi g'oyalar ma'lum bir so'fiy yoki muridlargagina tegishli emas, balki butun bashariyatga dahldor umuminsoniy g'oyalar va xalqning qalbidagi og'riqlar, hukmron tabaqa va raiyat orasidagi chigal munosabatlar ham o'rin olgan. Xususan, ushbu misralarga diqqat qilsak:

Ahli dunyo xalqimizda sahovat yo'q
Podsholarda, vazirlarda adolat yo'q,
Darveshlarning duosida ijobat yo'q,
Turluk balo xalq ustiga yog'di, do'stlar. [17;211]

Ahmad Yassaviy raiyatparvar, bechoralarga mudom ko'maklashuvchi, xalq dardini tinglab, yonib kuylagan so'fiy edi. Tarixiy manbalarda ham buyuk shayxning xalq tomonida bo'lib, podshohlar bilan bahslarga kirishgani va o'sha davrda taxt surgan hukmdorlar ham shayx bilan hisoblashgani, hatto o'zini murid sanaganlari bo'lganligi aks ettirilgan. Jumladan, Ahmad Yassaviyga bag'ishlab yozilgan Sa'dulla Siyoyev qalamiga mansub "Yassaviyning so'nggi safari" biografik romanida ham shunday tarixiy lavhalar badiiy gavdalantirilgan.

Ahmad Yassaviyning boshqa tasavvuf vakillaridan yana bir muhim farqli jihati ishq va oshiqlik g'oyalarini hikmatlar ma'nolari qatiga singdirganidir. Chunki tasavvuf tarixida ishq tushunchasini yuqori pafosda, jo'shqinlik bilan, tavhid bilan uyg'unlikda o'z ijodida turkiy tilda ifodalagan ijodkor yo'q edi. Aynan Ahmad Yassaviy tasavvufda ishq bilan bog'liq jihatlarni yorqin tasvirladi.

Ishq dardini oshiq'larga tuhfa berdi,
Shavq o'tida o'rtab-yonib kuydim mano
Muhabbatni sharobini to'yo berdi,
Sarmast bo'lub raqsu samo' urdum mano. [1;18]

Ushbu misralarda ishqning nechog'lik muqaddas dard ekanligi, dard bo'lsa-da, oshiq uchun bir tuhfa ekanligi ta'kidlanayapti. Tasavvuf yo'liga kirgan solik Allohga bo'lgan ishqining shavqidan har qancha yonib, kuymasin, yana o'sha ishqning sharobidan ichaveradi. Bu ishq sharobining ta'sirida oshiq ilohiy ma'rifatning shavqiga sho'ng'ib, sarmast bo'lib, raqsi samo' aylaydi. Albatta, bu mastlik majoziy ma'noda bo'lib, oshiqning o'zidan butunlay fano bo'lishi va vahdat holini his etishi bilan bog'liqdir. Shu o'rinda baytdagi raqsi samo' tushunchasining mazmuniga izoh bermoq joiz deb bildik. Raqsi samo' yassaviya, kubraviya, ishqiya, mavlaviya kabi tariqatlarda mavjud bo'lgan zikr turidir. Zokirlar, so'fiylar musiqa og'ushida raqs aylab, zikr qilishgan. Xususan, bu haqida tasavvufshunos N.Komilov quyidagicha ta'riflaydi: "Ovoz chiqarib, zikr tushish O'rta Osiyoda ham keng tarqalgan edi. Bunda bir guruh so'fiylar avval davra qurib o'tiradi, bir kishi (qavvol) muayyan iboralarni ma'lum ohangda o'qiydi, unga ayrim musiqa asboblari jo'r bo'ladi; bora-bora kishilar o'rnidan turib, o'ziga xos harakatlar qila boshlaydilar. Zikr vaqtida so'fiy va darvishlar "Alloh hayy" (Alloh tirik), "La ilaha illalloh" (Allohdan o'zga iloh



yo‘q), “Allohu akbar” (Alloh ulug‘), “Alhamdulillah” (Allohga hamdu sanolar) va boshqa so‘zlarni takrorlaydilar. Uzoq vaqt takrorlangan so‘zlar, musiqa va raqs natijasida zikr tushayotganlar (“sharobu antahur”dan sarmast bo‘lib) o‘zligini unutadi. Allohdan boshqa hech kim va hech narsani yodiga keltirmay qo‘yadi”. [7;20-28] Alloh ishqining sharobidan sarmast bo‘lgan so‘fiy oshiqlarning zikr, raqsu samo‘ orqali vahdatni his etishlari yuqoridagi baytlarda o‘zining betakror badiiy ifodasini topgan.

Ahmad Yassaviy turkiy adabiyotni tasavvuf g‘oyalari bilan boyitibgina qolmay, tariqat tili darajasiga ko‘tardi. O‘z hikmatlarini xalqona ruhda yuksak badiiy mahorat bilan ifodaladi. Turkiy tasavvuf adabiyotining tamoyillarini yaratib, irfoniy she‘riyat taraqqiyotiga betakror ta‘sir o‘tkazdi. Ahmad Yassaviy ijodi nafaqat o‘z davri uchun, balki barcha davrlarga, butun insoniyat kamolotiga xizmat qiluvchi xazina bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Аҳмад Яссавий. Девони Ҳикмат. Тошкент: “Мовароуннаҳр”. 2004.
2. Ahmad Yassaviy Devoni hikmat (yangi topilgan hikmatlar). www.ziyouz.com kutubxonasi.
3. Ахмад Яссавий. Хикматлар.-Тошкент: Ғафур Ғулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991.
4. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. 3-том. - Тошкент : “Фан”, 1984.
5. Воҳидов Р., Махмудов М. Иймон-қалб гавҳари. Тошкент: “Маънавият”. 1998.
6. Imom Buxoriy. Al-adab al-mufrad. www.ziyouz.com kutubxonasi
7. Комилов Н. Тасаввуф. Биринчи китоб.- Тошкент: Абдулла Кодирий номидаги халк мероси нашриёти, 1994.
8. Комилов Н. Тасаввуф. Иккинчи китоб. Тавҳид асрори.- Тошкент: Ғафур Ғулум номидаги Адабиёт ва санъат хамда “Ўзбекистон” нашриётлари, 1999.
9. Комилов Н. Тафаккур карвонлари. Т.: Маънавият, 1999
10. Маҳмуд Асъад Жўшон. Зикруллоҳнинг фазилатлари. Тошкент: “Сано-стандарт”. 2019.
11. Сиёев Саъдулла. Яссавийнинг сўнги сафари. Тошкент: “Чўлпон”. 1994
12. Raximovna U. N. TASAVVUF TA'LIMOTI VA G 'ARB ADABIYOTI //Ethiopian International Multidisciplinary Research Conferences. – 2023. – С. 117-119.
13. Umurova N. “IQRORNOMA” VA ISLOM FALSAFASI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2023. – Т. 41. – №. 41.
14. Umurova N. INTERPRETATION OF HIS IDEAS IN THE WORK OF AHMAD YASSAVIY //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. C10. – С. 45-49
15. Raximovna, Umurova Nigina. “Beshinchi tog ” asarida Sharq falsafasi." Ethiopian International Multidisciplinary Research Conferences. 2023.



16. Umurova N., Samadova S. Oriental Motives on "The Fifth Mountain" By Paulo Coelho //International Engineering Journal For Research & Development. – 2020. – T. 5. – №. 2.
17. Darmon, Uraeva, Rajabova Rano, and Rajabov Dilshod. "The stylization of prose tales in Uzbek children's literature." *Religación: Revista de Ciencias Sociales y Humanidades* 4.18 (2019): 170-174.
18. Rajabova, Rano. "Ўзбек Болалар Адабиётида Фольклор Жанрлари Стилизацияси." *Центр научных публикаций (buxdu. uz)* 8.8 (2021).
19. Rajabova, Rano. "Адабий топишмоқларда халқ топишмоқларига хос жанрий белгиларнинг ифодаси." *Центр научных публикаций (buxdu. uz)* 3.3 (2021).
20. Rahmatovna, Torayeva Umriniso, and Rajabova Rano Zaripovna. "Study of Begali Kasimov's Activity in Literary Studies and Scientific Biography of the Scientist." *Journal of Survey in Fisheries Sciences* 10.2S (2023): 3454-3459.
21. Rajabov, Dilshod Zaripovich. "Radif in uzbek folk songs." *Theoretical & Applied Science* 10 (2018): 316-318.
22. Juraev, Mamatkul, Dilshod Rajabov, and Shahodatbonu Imomnazarova. "WEDDING SONG GENRE IN THE CEREMONY LYRICS OF THE CENTRAL ASIAN TURKISH PEOPLES." *Theoretical & Applied Science* 7 (2020): 467-473.
23. Rajabov, Dilshod Zaripovich. "O'ZBEK XALQ QO'SHIQLARIDA RADIFNING IFODA SHAKLLARI." *Konferensiyalar| Conferences. Vol. 1. No. 4. 2024.*
24. Ahmadovich H. S., Muminovna M. M. About Nisoriy Bobur And Humoyun //NVEO-NATURAL VOLATILES & ESSENTIAL OILS *Journal| NVEO.* – 2021. – С. 4753-4767.
25. Muhammadova M. HUMOYUN MIRZO NISORIY TALQINIDA: Mahbuba Muhammadova Termiz davlat universitetining mustaqil izlanuvchisi //Научно-практическая конференция. – 2021.
26. Mahbuba M. Nisoriyning "Muzakkiri ahbob" tazkirasida ayrim janr va badiiy san'atlar xususiyati //Karabük-2020.
27. Mo'minovna M. M. SECTION: HISTORY SCIENCE //POLISH SCIENCE JOURNAL. – 2019. – С. 29.
28. Mo'minovna M. M. NISORIY DO 'ST MUHAMMAD SULTON VA UNING IJODKOR SIFATIDAGI QIRRALARI HAQIDA //INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2023. – Т. 3. – №. 29. – С. 348-350.
29. Makhbuba M. "Muzakkiri Ahbob" Fable By Nisari And Its Role In Literature Studies //European Journal of Business and Social Sciences. – 2019. – Т. 7. – №. 10. – С. 111-116.
30. Sanobar A., Mahbuba M. O'LMAS UMARBEKOVNING"ODAM BO'LISH QIYIN"ASARINING BADIY TAHLILI //ZAMONAVIY TA'LIMDA FAN VA INNOVATSION TADQIQOTLAR JURNALI. – 2024. – Т. 2. – №. 1. – С. 74-80.
31. Latipov H. R. ALISHER NAVOI ON LOVE, ENLIGHTENMENT AND AWARENESS //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 6. – С. 551-556.



32. Ramazonovich L. H. Souls striving to god or from the world of wise people //Journal of Social Sciences and Humanities Research. – 2018. – Т. 6. – №. 04. – С. 14-18.
33. Ramazonovich L. H. Symbolism, Allusion and Essence in the Work of Turkigoi Songs //International Journal of Formal Education. – 2024. – Т. 3. – №. 4. – С. 20-28.
34. Baxtiyorovna, N. N. , & Latipov, H. R. . (2024). Expression of Common Ideas and Images in the Creations of Navoy and Pushkin. International Journal of Formal Education, 3(4), 46–53. Retrieved from <http://journals.academiczone.net/index.php/ijfe/article/view/2479>
35. Ramazonovich, L. H. . (2024). Symbolism, Allusion and Essence in the Work of Turkigoi Songs. International Journal of Formal Education, 3(4), 20–28. Retrieved from <http://journals.academiczone.net/index.php/ijfe/article/view/2474>
36. Norova N. Principal Directions of Studying the Problem of Style in Literature (on the Example of U. Kochkor's Lyrics) //JournalNX. – С. 913-915.
37. Norova N., Nigina M. OMON MATJON SHE'RLARIDA QUSHLAR TIMSOLI //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 13. – №. 3. – С. 27-30.
38. Nasiba N. UDC: 821.512. 133 TRADITION AND INNOVATION IN USMON KUCHKOR'S POEMS //SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY. – С. 100.
39. Norova N. B. Creative abilities of the artist in the application of the art (on the example of the lyrics of osman kochkar) //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – Т. 4. – №. 5. – С. 214-221.
40. Norova N. Artistic skills in Usmon Kuchkor poetry //центр научных публикаций (buxdu. Uz). – 2022. – Т. 15. – №. 15.
41. Bakhtiyorovna N. N. CREATIVE ABILITIES OF THE ARTIST IN THE APPLICATION OF THE ART (ON THE EXAMPLE OF THE LYRICS OF OSMAN KOCHKAR).
42. Gaybulloevna D. S., Bakhtiyorovna N. N. PSYCHOLOGIST IN ULUGBEK HAMDAM'S NOVEL " FATHER.
43. Norova N. УСМОН ҚЎЧҚОР УСМОН ҚЎЧҚОРНИНГ “ЛАЗИЗЖОН МАРСИЯСИ” ШЕЪРИ ХУСУСИДА: УСМОН ҚЎЧҚОРНИНГ “ЛАЗИЗЖОН МАРСИЯСИ” ШЕЪРИ ХУСУСИДА //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 16. – №. 16.
44. Norova N. ҲОЗИРГИ ШЕЪРИЯТДАГИ ПОЭТИК ЯНГИЛАНИШЛАР ҲАҚИДА //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 16. – №. 16.
45. Norova N. Usmon Qo 'chqor lirikasidagi obrazlar turkumi //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
46. Baxtiyorovna N. N. USMON QOCHQOR LIRIKASIDA MUHABBAT MAVZUSINING TALQINI: DOI: 10.53885/edinres. 2021.71. 75.119 Norova Nasiba Baxtiyorovna, BuxDU Uzbek tili va adabiyoti kafedrasida tayanch doktoranti (Ozbekiston) //Научно-практическая конференция. – 2021.



- 47.Норова Н. Б. УСМОН ҚЎЧҚОР ШЕЪРИЯТИДА ТАБИАТ ТАСВИРИ ТАЛҚИНИ: Норова Насиба Бахтиёровна, Бух ДУ ўзбек адабиёти кафедраси ўқитувчиси,(PhD) //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2023. – №. 1.
- 48.Baxtiyorovna, N. N. ., & Latipov, H. R. . (2024). Expression of Common Ideas and Images in the Creations of Navoy and Pushkin. International Journal of Formal Education, 3(4), 46–53. Retrieved from <http://journals.academiczone.net/index.php/ijfe/article/view/2479>
- 49.Norova N. The Subject of Bukhara in the Poems of Osman Kochkar //Best Journal of Innovation in Science, Research and Development. – 2024. – Т. 3. – №. 3. – С. 858-863.
50. Norova N. The Subject of Bukhara in the Poems of Osman Kochkar //Best Journal of Innovation in Science, Research and Development. – 2024. – Т. 3. – №. 3. – С. 858-863.
- 51.Sharipova L. F. Literary riddles //Theoretical & Applied Science. – 2018. – №. 10. – С. 342-346.
- 52.Sharipova L. BOLALAR ADABIYOTINING NOZIKTA’B ZARSHUNOSI //Konferensiyalar| Conferences. – 2024. – Т. 1. – №. 4. – С. 67-70.
- 53.Шарипова Л., Низомова К. ЎЗИГА ХОС ШЕЪРИЯТ //Прикладные науки в современном мире: проблемы и решения. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 19-21.
- 54.Sharipova L. F. Literary riddles //Theoretical & Applied Science. – 2018. – №. 10. – С. 342-346.
- 55.Sharipova L. Замонавий шеъриятда ёмғир образи //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
- 56.Шарипова Л. БОҚИЙ МАВЗУДА БИТИЛГАН ШЕЪРЛАР: Шарипова Лайло, ф. ф. д., ўзбек тили ва адабиёти кафедраси доценти, Бухоро давлат университети //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – №. 5. – С. 52-56.
- 57.Sharipova L., Boboxo’jayeva L. A. XALQ OG ‘ZAKI IJODINING USMON AZIM IJODIGA TA’SIRI MASALASI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 6. – С. 948-952.
- 58.Sharipova L. ALISHER NAVOIY IJODIDA LUG ‘Z //Academic research in educational sciences. – 2023. – Т. 4. – №. Conference Proceedings 1. – С. 387-391.
- 59.Sharipova L. Literary yor-yor //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – Т. 1. – №. 4. – С. 218-222.
- 60.Sharipova L. XX asrning 70–80-yillari o‘zbek she’riyatida folklorizm //Toshkent: Fan. – 2011. – Т. 153.